1931
TDIU
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

№1
MAXSUS SON

Google Scholar
OPEN ACCESS
ULRICHSWEB GLOBAL SERIALS DIRECTORY
OpenAIRE
ROAD
НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА eLIBRARY.RU
Academic Resource Index ResearchBib
ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE
CYBERLENINKA
BASE
INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL
Crossref

## BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO‘PLAMI




ISSN: 2992-8982
https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/
2026

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 35 sahifa.*
*2026-yil yanvar*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Karimov Norboy Gʻaniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – Oʻzbekiston doʻstlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat Gʻafforovna,** pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdugʻaniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Koʻnak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoʻja oʻgʻli,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Oʻz.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshligʻi oʻrinbosari
**Ochilov Farkhod,** Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshligʻi
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), katta oʻqituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon oʻgʻli,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor oʻgʻli,** TDIU katta oʻqituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Ochilov Farkhod,** Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

EKSPORT VA IMPORT OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH: TAHLIL VA AUDIT ................................10
**Urinboyev Bexruz Zoir o‘g‘li, Misirov Asliddin Mamasobirovich**

QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALARNING ROLI ................................15
**Jabborov Muhammad Sanjarovich, Djurayeva Dilnoza Davron qizi, Song Jichung**

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH OMILLARI VA MAKROIQTISODIY TA’SIRI ................................21
**Xoliqulova Ra’no Sherali qizi, Berdiyev Nazirjon Abduvoseyevich**

КУЛЬТУРНЫЙ ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА ................................25
**Ахтамов Огабек Улугбек угли, Фахритдинов Амриддин Фазлитдинович, Саидмуродов Жонибек Жахонгирович, Саттарова Зухра Илхомовна**

DAVLATNING YASHIL INVESTITSIYALAR ORQALI IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISH SIYOSATI ...........31
**Sharipboyev Hasanboy Marks o‘g‘li, Shodmonov Ruslan G‘olib o‘g‘li**

# DAVLATNING YASHIL INVESTITSIYALAR ORQALI IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISH SIYOSATI

**Sharipboyev Hasanboy Marks o'g'li**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi
https://orcid.org/0009-0004-6707-9697
sharipboyevhasanboy1@gmail.com

Ilmiy rahbar:
**Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston iqtisodiyotini davlat tomonidan yashil investitsiyalar orqali tartibga solishning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. Yashil energiya, resurslarni tejash hamda ekologik loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Davlat tomonidan subsidiyalar, soliq imtiyozlari va grantlar orqali investorlarga rag'bat berishning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda amaldagi islohotlar jarayonida yashil investitsiyalar ulushini oshirish imkoniyatlari hamda mavjud muammolar yuzasidan xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: yashil investitsiyalar, davlat tomonidan tartibga solish, barqaror iqtisodiy o'sish, ekologik moliyalashtirish, qayta tiklanadigan energiya, soliq rag'batlari, subsidiyalash mexanizmlari, ekologik modernizatsiya, investitsion siyosat.

Abstract: The article examines the theoretical and practical aspects of state regulation of the Uzbek economy through green investments. The mechanisms for financing green energy, resource conservation, and environmental projects are considered. The economic effectiveness of state incentives for investors—such as subsidies, tax incentives, and grants—is analyzed. The study presents conclusions on the opportunities to increase the share of green investments within the current reform process, as well as the existing challenges.

Key words: green investments, state regulation, sustainable economic growth, environmental financing, renewable energy, tax incentives, subsidy mechanisms, environmental modernization, investment policy.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты государственного регулирования экономики Узбекистана посредством «зелёных» инвестиций. Анализируются механизмы финансирования проектов в сфере зелёной энергетики, ресурсосбережения и охраны окружающей среды. Оценивается экономическая эффективность государственных стимулов для инвесторов в виде субсидий, налоговых льгот и грантов. В работе представлены выводы о возможностях увеличения доли «зелёных» инвестиций в текущем процессе реформ, а также о существующих проблемах.

Ключевые слова: «зелёные» инвестиции, государственное регулирование, устойчивый экономический рост, экологическое финансирование, возобновляемая энергия, налоговые льготы, механизмы субсидирования, экологическая модернизация, инвестиционная политика.

## KIRISH

Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash davlatning asosiy vazifalaridan biridir. Global miqyosda iqtisodiy o'sish bilan ekologik xavfsizlik masalalari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, tabiiy resurslarning cheklanganligi, iqlim o'zgarishi va atrof-muhitning ifloslanishi iqtisodiy faoliyatni yangi sharoitlarda qayta tartibga solishni taqozo etadi. Shu munosabat bilan yashil iqtisodiyot konsepsiyasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, bunda iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik uyg'unlashadi.

Yashil investitsiyalar ekologik xavfsiz loyihalarni moliyalashtirish orqali iqtisodiy tizimni modernizatsiya qilish va resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Ushbu investitsiyalar qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, chiqindilarni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish, sanoat

va xizmatlar sohasida ekologik toza texnologiyalarni tatbiq etishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, yashil investitsiyalar nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, yangi ish o'rinlari yaratadi hamda innovatsion rivojlanishni rag'batlantiradi.

O'zbekiston sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning dolzarbligi energiya samaradorligi, ekologik xavfsizlik va milliy investitsiya siyosatini uyg'unlashtirish bilan bog'liq. Davlat tomonidan moliyaviy rag'batlantirish vositalari — soliq imtiyozlari, subsidiya dasturlari, grantlar va imtiyozli kreditlar — yashil investitsiyalarni kengaytirish va ularni amaliy loyihalarga yo'naltirishda asosiy mexanizmlar sifatida xizmat qiladi. Shu tariqa, davlatning tartibga solish mexanizmlari iqtisodiy tizimning barqarorligini oshirish, ekologik modernizatsiyani amalga oshirish va milliy iqtisodiy strategiyalarni qo'llab-quvvatlash imkonini yaratadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, yashil investitsiyalar orqali iqtisodiyotni tartibga solish nafaqat ekologik va ijtimoiy manfaatlarni, balki uzoq muddatli iqtisodiy o'sish hamda innovatsion rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu sababli ushbu maqola davlat siyosati orqali yashil investitsiyalarni rag'batlantirish mexanizmlarini tahlil qilish, ularning iqtisodiy samaradorligi va milliy iqtisodiyotga qo'shadigan hissasini aniqlashga qaratilgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va yashil investitsiyalar orqali barqaror rivojlanishni ta'minlash masalalari ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. O'zbekistondagi tadqiqotlar asosan iqtisodiyotni tartibga solish instrumentlari, moliyaviy rag'batlantirish vositalari hamda investitsion siyosatni o'rganishga qaratilgan. Abulkasimov H. va Topildiyev S. (2022) iqtisodiyotni tartibga solishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlarini batafsil tahlil qilgan. Mualliflar davlatning soliq imtiyozlari, subsidiyalar va kredit preferensiyalari orqali iqtisodiy faoliyatni tartibga solish imkoniyatlarini ko'rsatib, milliy iqtisodiyot sharoitida ushbu mexanizmlarning samaradorligini baholashga alohida e'tibor qaratadi. Topildiyev S. (2025) o'quv qo'llanmasida esa davlat siyosati orqali investitsion faollikni rag'batlantirish, bozor mexanizmlari bilan uyg'unlashtirish va barqaror rivojlanishga erishish masalalari amaliy misollar asosida yoritilgan [1].

Chet el adabiyotlarida yashil investitsiyalar va davlat tomonidan tartibga solish masalalari yanada kengroq o'rganilgan. Xususan, OECD (2017) hisobotlarida yashil investitsiyalarni rag'batlantirish bo'yicha turli davlatlar tajribasi, moliyaviy va fiskal instrumentlar, shuningdek, ekologik innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlari batafsil yoritilgan. Iqtisodiyotni tartibga solishning samarali mexanizmlari sifatida soliq imtiyozlari, grantlar va kredit preferensiyalari nafaqat rivojlangan davlatlarda, balki rivojlanayotgan mamlakatlarda ham keng qo'llanilmoqda (UNEP, 2019). Shuningdek, Stern (2006) iqtisodiy rivojlanishni ekologik risklar bilan uyg'unlashtirish hamda yashil investitsiyalarni kengaytirish orqali iqlim o'zgarishi oqibatlarini kamaytirish imkoniyatlarini ilmiy asoslab bergan [2].

Yashil investitsiyalar bo'yicha boshqa tadqiqotlar ham davlat tomonidan tartibga solish va barqaror rivojlanishning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Jumladan, KPMG (2020) va World Bank (2021) hisobotlarida yashil moliyalashtirishning iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinlari yaratish va ekologik barqarorlikka ijobiy ta'siri statistik ma'lumotlar asosida tasdiqlangan. Shu bilan birga, chet el tadqiqotlarida davlatning tartibga solish rolini bozor mexanizmlari bilan uyg'unlashtirish masalalari ham keng muhokama qilinadi. Bu esa O'zbekiston sharoitida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va yashil investitsiyalarni samarali jalb etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil investitsiyalar va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish masalalari nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki milliy iqtisodiy strategiyalarni amalga oshirish, investitsion faollikni oshirish va energiya samaradorligini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli mazkur maqola O'zbekiston sharoitida yashil investitsiyalarni rag'batlantirish mexanizmlari va ularning iqtisodiy samaradorligini ilmiy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda yashil investitsiyalar va ularning iqtisodiyotga ta'sirini o'rganishda bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Deduksiya va induksiya usullari orqali nazariy asoslar aniqlanib, ular amaliy tajribalar bilan bog'landi. Abstrakt-mantiqiy fikrlash hamda tizimli tahlil usullari jarayonlarni kompleks ko'rib chiqish va ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash imkonini berdi.

Qiyosiy tahlil yordamida O'zbekiston sharoiti boshqa mamlakatlar tajribasi bilan solishtirildi. Ekspert baholash va iqtisodiy-statistik metodlar esa ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish hamda ilmiy xulosalar chiqarishda qo'llanildi. Shu bilan birga, sintez va tahlil usullari orqali mavzuga oid ilmiy adabiyotlar hamda amaliy tajribalar integratsiyalashdi, bu esa tadqiqotning konseptual tizimga asoslanishini ta'minladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston sharoitida yashil investitsiyalarni rag‘batlantirish va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish jarayonini tahlil qilish natijalari bir qator asosiy yo‘nalishlarni ko‘rsatdi. Avvalo, davlat tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy rag‘batlantirish vositalari — soliq imtiyozlari, subsidiya dasturlari, grantlar va imtiyozli kreditlar — yashil loyihalarni moliyalashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot ko‘rsatdiki, ushbu instrumentlar orqali qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi va chiqindilarni qayta ishlash sohalariga sarmoya jalb qilish samarasi ortmoqda.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari orqali yashil investitsiyalarni rivojlantirish nafaqat ekologik barqarorlikni mustahkamlaydi, balki iqtisodiy o‘sishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, energiya samaradorligini oshirish va chiqindilarni qayta ishlash loyihalariga sarmoya kiritilishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va yangi ish o‘rinlarini yaratadi. Shu bilan birga, moliyaviy rag‘batlar va normativ-huquqiy bazaning mavjudligi investorlar ishonchini oshirib, investitsion faoliyatni kengaytiradi.

2023-yil oktabr oyida O‘zbekiston Respublikasi ilk bor milliy valyutada “yashil” suveren xalqaro obligatsiyalarni London fond birjasida joylashtirdi. Obligatsiyalar hajmi 4,25 trillion so‘mni tashkil qilgan bo‘lib, bu MDH davlatlari orasida birinchi marta amalga oshirilgan tashabbus hisoblanadi. Ushbu obligatsiyalar orqali jalb qilingan mablag‘lar yashil investitsiyalarga yo‘naltiriladi. Rasmiy hisobotlarga ko‘ra, mablag‘lar suv tejovchi texnologiyalar, transport tizimini ekologik toza qilish va chiqindilarni boshqarish kabi loyihalarni moliyalashtirishga ajratilishi rejalashtirilgan. Bu investitsiyalar mamlakatning ekologik barqaror rivojlanishi va energiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Joylashtirilgan obligatsiyalar natijasida O‘zbekiston xalqaro moliya bozorida ishonchliligini oshirdi va investitsion oqimlarni jalb qilish imkoniyatini kengaytirdi. Shu bilan birga, MDH davlatlari orasida birinchi bo‘lgani sababli, mamlakatning yashil moliya bozoridagi yetakchi mavqeini mustahkamladi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, suveren “yashil” obligatsiyalar va ular orqali amalga oshiriladigan yashil investitsiyalar O‘zbekistonning barqaror rivojlanish va ekologik moliyaviy strategiyasida muhim instrument sifatida ishlamoqda(1-jadval).

1-jadval. O‘zbekistonda yashil investitsiyalar hajmining o‘sish dinamikasi (2019–2024-yillar) [4]

| Yil | Yashil investitsiyalar hajmi (mlrd so‘m) | Yalpi investitsiyalardagi ulushi (%) | Davlat investitsiyasi (%) | Xorijiy investitsiya (%) | Qayta tiklanuvchi energiya ulushi (%) | $CO_2$ chiqindilari kamayishi (%) |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 2019 | 3 120 | 2.8 | 45.0 | 55.0 | 10.5 | 1.2 |
| 2020 | 4 260 | 3.4 | 48.5 | 51.5 | 13.2 | 1.8 |
| 2021 | 5 870 | 4.1 | 46.7 | 53.3 | 15.6 | 2.3 |
| 2022 | 7 320 | 4.9 | 44.0 | 56.0 | 18.7 | 3.1 |
| 2023 | 9 140 | 5.7 | 42.8 | 57.2 | 22.1 | 3.8 |
| 2024 | 10 950 | 6.3 | 40.0 | 60.0 | 25.4 | 4.5 |

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda energetika sohasida sezilarli o‘sish va modernizatsiya jarayonlari kuzatilmoqda. Ayniqsa, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qator muhim loyihalar amalga oshirildi. Xususan, mamlakat hududida 3,5 gigavatt quvvatga ega bo‘lgan 16 ta yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushirildi. Ushbu stansiyalar nafaqat ichki energiya ehtiyojlarini qoplashga, balki eksport imkoniyatlarini kengaytirishga ham xizmat qilmoqda.

Shuningdek, kichik gidroelektr stansiyalari (GES) soni ham oshdi — joriy davrda 35 ta yangi kichik GES qurilib, foydalanishga topshirildi. Ushbu kichik stansiyalar asosan mahalliy aholi punktlari va qishloq hududlarida elektr ta’minotini yaxshilash, shuningdek, energiya yetkazib berishdagi uzilishlarni kamaytirishga qaratilgan.

Bunday keng ko‘lamli loyihalar mamlakatning energiya mustaqilligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular neft va gazga bo‘lgan qaramlikni kamaytiradi, energiya resurslarining barqarorligini oshiradi hamda ekologik toza energiyadan foydalanishni kengaytiradi. Shu bilan birga, quyosh va shamol energetikasi yordamida havoning ifloslanishini kamaytirish, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va ekologik barqarorlikni ta’minlash imkoniyatlari yaratiladi.

1-jadval. “Yashil energetika”ni rivojlanish istiqbollari [5]

| Yil | 2015 | 2018 | 2030 | 2050 |
|---|---|---|---|---|
| Pirovard energiya iste’molidagi energiya ulushi (%) | 9,5 | 10,5 | 17,0 | 25,0 |
| Energiya sig’imkorligi (%) | 1,8 | 1,8 | 2,4 | 2,6 |
| Elektr energiya ishlab chiqarishda muqobil energiya ulushi (%) | 23,0 | 26,0 | 38,0 | 55,0 |
| Elektromobillar soni (mln.dona) | 1,2 | 7,9 | 269 | 627 |
| Isitish qurilmalari (mln.dona) | 20 | 38 | 63 | 119 |

O‘zbekiston 2030-yilgacha barqaror va ekologik toza iqtisodiyotni shakllantirishni maqsad qilgan. O‘zbekiston Respublikasi 2023-yil oktabr oyida ilk bor milliy valyutada 4,25 trillion so‘m miqdoridagi “yashil” suveren xalqaro obligatsiyalarni London fond birjasida joylashtirdi. Bu MDH davlatlari orasida birinchi bunday tashabbus bo‘lib, ushbu obligatsiyalardan tushgan mablag‘lar suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, temir yo‘l va metro transportini rivojlantirish, sanitariya tozalash ishlarini tashkil etish kabi “yashil” loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi.

2019-yil 4-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining ‘yashil’ iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” tasdiqlandi. Ushbu strategiya doirasida texnologik modernizatsiya, moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish kabi vazifalar belgilangan. O‘zbekiston hukumati xalqaro moliya institutlari va donor tashkilotlar bilan hamkorlikda yashil investitsiyalarni jalb qilish va amalga oshirishga intilmoqda. Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (UNDP) bilan hamkorlikda yashil obligatsiyalar dasturi bo‘yicha ishlar olib borilmoqda [6].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston sharoitida yashil investitsiyalarni rag‘batlantirish va davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari ekologik barqarorlikni mustahkamlash hamda iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Moliyaviy rag‘batlar va normativ-huquqiy bazaning mavjudligi sarmoyalarni jalb etishni kuchaytirib, qayta tiklanadigan energiya, energiya samaradorligi va chiqindilarni boshqarish sohalarini rivojlantirishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, suveren “yashil” obligatsiyalar va xalqaro hamkorlik orqali jalb qilingan investitsiyalar mamlakatning barqaror rivojlanish strategiyasini qo‘llab-quvvatlamoqda.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishni yanada samarali qilish uchun moliyaviy rag‘batlantirish choralarini kengaytirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, texnologik modernizatsiya va hududiy energiya loyihalarini rivojlantirish, shuningdek, erishilgan natijalarni muntazam monitoring qilish zarur.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abulkasimov H., Topildiyev S. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish. — Toshkent: Iqtisod-moliya, 2022.
2. OECD. Green Investment Policies: Trends and Opportunities. — Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development, 2017.
3. The World Bank. Annual Report 2021: From Crisis to Green, Resilient, and Inclusive Recovery. — Washington, DC: World Bank, 2021.
4. UNEP. Global Environment Outlook – GEO-6: Healthy Planet, Healthy People. — Nairobi: United Nations Environment Programme, 2019.
5. Stern N. The Economics of Climate Change: The Stern Review. — Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
6. KPMG. Sustainable Finance and Green Investment Report. — London: KPMG International, 2020.
7. https://green.imv.uz/uz/ — rasmiy ma’lumotlar asosida tayyorlandi.
8. https://stat.uz/uz/ — rasmiy statistika ma’lumotlari asosida tayyorlandi.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2019–2030-yillar davrida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida PQ-4477-sonli qaror. — Toshkent, 2019. https://lex.uz/docs/-4539502
10. UNDP. Green Finance and Investment Support Programme in Uzbekistan. — New York: United Nations Development Programme, 2021.

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV
**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

## 1-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to‘plami

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz